

ETNOLINGVISTIKANING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi

ADUPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnolingvistikaning vujudga kelishi va taraqqiy etishi to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan bo‘lib, etnolingvistika etnik madaniyat va til o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zaro bog‘liqligi haqida fikr yuritadi. Etnolingvistika tilning etnik jihati va etnosning lingvistik xususiyatlarini ifodalash, ichki va millatlararo aloqalardagi etnolingvistik jarayonlar, etnik jamoalarning shakllanishi va faoliyatida tilning o‘rni, til va an‘anaviy madaniyat, tafakkurning etnik o‘ziga xosligi, dunyo tillarining etnolingvistik tasnifini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: Etnolingvistika, termin, etnik, yo‘nalish, ernologiya, tarixiy, an‘anaviy, metodologik.

Аннотация: В данной статье представлена информация о возникновении и развитии этнолингвистики, а в этнолингвистике рассматриваются взаимосвязи между этнической культурой и языком. Этнолингвистика – это выражение этнического аспекта языка и языковых особенностей этноса, этнолингвистических процессов во внутренних и межэтнических отношениях, роли языка в формировании и деятельности этнических общностей, языка и традиционной культуры, этнического своеобразия мышления, этнолингвистической классификации мировые языки.

Ключевые слова: Этнолингвистика, терминология, этничность, направление, этнология, исторический, традиционный, методологический

Annotation: This article provides information on the emergence and development of ethnolinguistics, and ethnolinguistics discusses the interrelationships

between ethnic culture and language. Ethnolinguistics is the expression of the ethnic aspect of language and linguistic features of ethnos, ethnolinguistic processes in internal and interethnic relations, the role of language in the formation and activity of ethnic communities, language and traditional culture, ethnic identity of thought, ethnolinguistic classification of world languages.

Keywords: Ethnolinguistics, terminology, ethnicity, direction, ethnology, historical, traditional, methodological

Hammanizga ma'lumki, til – insoniyat tomonidan ajdodlardan meros qilib olingan “ma'naviy boylik”, tarkibida turli elementlar, qoidalar, barcha sathlardagi munosabatlar saqlanayotgan imkoniyatlar xazinasidir. Etnolingvistika ana shu “imkoniyatlar xazinasini”ning vujudga kelish tarixi, xalq o'tmishi bilan bog'liq jihatlarni o'rganadi. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Tariximiz kabi, qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu tabiiy hol, chunki hech qachon, hech qerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqichlari kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi”. O'zbek etnolingvistikasi bir necha ming yillar davomida O'zbekiston hududlarida yashab o'tgan urug' va qabilalarning tarixi va madaniyati bilan bog'liq til birliklarini o'rganadi. Etnolingvistika A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati” kitobida shunday ta'rif beriladi: “Etnolingvistika – makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlarni, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi bo'limi”. Globallashuv kuchayishi bilan o'zligi — tili, urf-odati va madaniyatini saqlab qolishga intilayotgan, ularning bu umumiy girdobda omon qolishini xohlayotgan xalqlar etnografiya va etnolingvistikaga alohida e'tibor qaratadilar. Ma'lumki, etnolingvistika — tilshunoslikning xalq (millat, elat) va uning tili orasidagi aloqa va munosabatni

etnolisoniy (etnik madaniyat va etnik til mushtarakligi tamoyili) asosda o‘rganuvchi soha. U, asosan, ikki yo‘nalishda ish ko‘radi:

- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o‘rganish;
- xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsivaviy asosda o‘rganish.

Birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin.

Til va etnik xususiyat munosabati, ularning bir-biriga ta’siri ikki yo‘sinda kechadigan jarayon:

- etnik omil (urf-odat, an’ana, falsafiy, diniy qarashlar va h.) ning til rivojiga ta’siri;
- lisoniy omilning etnos (va etnik xususiyat) rivojiga ta’siri.

Deylik, bir xalqda etnik xususiyat (urf-odat, an’ana, falsafiy, diniy qarashlar) unutilib, bunga mos ravishda ularni ifodalovchi til birliklari ham faol lisoniy xazinadan chiqib, o‘tmish voqeligiga aylana boradi. Natijada millat/xalq/elatning o‘zligiga putur yeta boshlaydi. Millat/xalq/elat o‘z ma’naviyatidan mahrum bo‘lib boradi. Bu, muqarrar ravishda, faol leksikada ham o‘z aksini topadi. Til leksikasida etnografik mikrosistema tanazzulga uchray boshlaydi. Bu etnik omillarning tilga ta’siridir. Pirovardida etnografik leksikaga ega bo‘lmagan millat farzandlari ongidagi etnolisoniy bo‘shliq g‘ayrietnolisoniy unsurlar bilan to‘lib boradi.

Til va etnik xususiyat ta’sirini ajratish faqat tadqiqiy maqsadda bo‘lib, bu ajratish nisbiy tabiatga ega, aslida ular yaxlit sodir bo‘ladigan uzluksiz va uzviy jarayon.

Etnolingvistika til va uning rivojiga etnik guruhlarining qanchalik xissa qo‘shganini ham, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini ham tadqiq qiladi. Bu yuqorida aytilgan birinchi, tashqi maqsad uchun ahamiyatliroq.

Birinchi maqsadda ko‘proq tavsifiy tadqiq metodikasi asosida ish ko‘riladi. Tilshunoslikning etnik nomshunoslik (onomastika), areal (hududiy) lingvistika, lingvistik jo‘g‘rofiya, dialektologiya (shevashunoslik), til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari etnolingvistikaning mazkur tavsifiy usulda qo‘lga kiritgan

ilmiy natijalardan foydalanadi. Etnografizmlarni o‘rganish bevosita tarixiy etnologiya fanlari bilan bog‘liq. Urf-odatlar, xalqlarning turmush tarzi va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy jarayonlarni etnologiya o‘rgansa, urf-odat, an‘analar leksikasi (etnografik leksika) — tilshunoslikning o‘rganish obyekti. Har bir millat madaniyatini uning urf-odat, an‘ana va qadriyatlaridan ajratgan holda tassavvur etib bo‘lmaydi. Etnografik leksika nomi ostida birlashgan etnografizmlarni o‘rganish milliy urf-odat va qadriyatlarni tadqiq etishda ahamiyatli. Urf-odatlar muayyan etnosning o‘ziga xosliklarini namoyon etadi, butun etnografik sistemada lisoniy belgi sifatida faol o‘ringa ega, shu jihati bilan tilshunoslik uchun muhim

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga xulosa sifatida qayd etish lozimki, hozirgi davrda o‘zbek etnologiyasi dolzarb va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga molik quyidagi muammolarni yechishi lozim:

- Etnologiya sohasida tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar o‘zaro hamkorlikda fanning keigusidagi istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olishlari darkor. Bunda o‘zbek etnologiyasi rivojlangan mamlakatlar fani bilan hamohang rivojlanishi va o‘z navbatida o‘zining maktablari va konsepsiyasiga ega bo‘lmog‘i kerak. Metodologik muammolarga sifat jihatdan yangicha yondashuvni tashkil etish barobarida an‘anaviy usullar bilan birga noan‘anaviy usullardan ham foydalanish zarur. Nazariy-metodologik tadqiqotlarga jiddiy e‘tibor qaratilmas ekan, bajarilgan har qanday ilmiy ish ham amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Natijada u ilmiy qimmatga ega bo‘lmagan tavsifiy tadqiqotdan nariga o‘tmaydi. Qolaversa, bugunning zamonaviy muammolarini etnolog olim nigohi bilan tadqiq qilish, amalga oshirilgan har bir tadqiqot jamiyatning ma‘lum bir sohasi uchun amaliy natija bermog‘i lozim. Shundagina etnologik tadqiqotlarga jamiyatda qiziqish ortadi va uning amaliy qiymati oshadi.

-Respublikamizda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassislar tomonidan etnos nazariyasi, etnogenezi va etnik tarixga bag‘ishlangan sifat jihatidan yuqori ilmiy xulosalarga asoslangan tadqiqotlarni yaratish zarur. “O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi”ning majmuaviy muammosi mamlakatimiz ilmiy muammolarining markazida turganligi hamda xalqimiz etnogenezi va etnik

tarixining turli jihatlari jiddiy o‘rganilayotganiga qaramay, murakkabligi bois uni tugallangan deb bo‘lmaydi va u arxeolog, antropolog, etnograf, tarixchi, tilshunos va boshqa soha olimlarining jamoaviy fikr mulohaza va xulosalarini kutmoqda.

Umuman olganda, etnologiya insoniyat faoliyatining turli jihatlarini tadqiq qiluvchi fan bo‘lishi bilan birga mazkur fan jamiyat hayotida hech qanday me‘yoriy qoliplar bilan o‘lchab bo‘lmaydigan qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, etnologiya fani kishilarning dunyoda madaniyatlar xilma-xilligini anglashga bo‘lgan doimiy ehtiyojini qondirish missiyasini bajaradi. Bu esa odamzodning ma‘naviy jihatdan boy va hayot faoliyati samarali bo‘lishiga olib kelishi shubhasizdir. Ikkinchidan, etnologiya insoniyat xatti-harakati, jamoat tartibi va ijtimoiy- siyosiy institutlar faoliyatining tarixiy-madaniy mazmunini tadqiq qiladi. Shu asosda tarixiy tajriba, madaniy (hamda biologik) munosabatlar (individual yoki jamoaviy) umuman jamiyat hayotiga, shu jumladan, siyosat va boshqaruvga qanday ta‘sir etishini o‘rganadi. Uchinchidan, tadqiqotchilar etnologiya bilan, ko‘pincha, avvalo o‘zlarining shaxsiy qiziqishlari doirasidan kelib chiqib mashg‘ul bo‘ladilar va bu jarayonda moddiy qiziqish yoki qandaydir ijtimoiy buyurtma birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Ashirov, Sh.Atadjanov “Etnologiya”.
- 2.A.Nurmonov “Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo‘nalishlari”.
- 3.A.E.Mamatov “Zamonaviy lingvistika”.
- 4.I.Jabborov “O‘zbek xalqi etnografiyasi”.
5. Y.Babajanov “Xorazm etnografik leksikasi”.

